



QALQONSIMON BEZ PATOLOGIYASI BO'LGAN O'SMIR QIZLARDA HAYZ DAVRINING BUZILISHINI O'ZIGA XOSLIGI

Davranova Aziza Davranovna

Endokrinologiya kafedrası assistenti

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

Samarqand, O'zbekiston Respublikasi

e-mail: aziza.davranova29@gmail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7037806>

ARTICLE INFO

Received: 24th August 2022

Accepted: 26th August 2022

Online: 31st August 2022

KEY WORDS

qalqonsimon bez, hayz sikli, reproduktiv tizim, gipoterioz, amenoreya.

ABSTRACT

O'smir qizlarning reproduktiv salohiyatini saqlash ya'ni fertil yoshda tug'ish funksiyasini amalga oshirish imkoniyati dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida eng muhim tibbiy va ijtimoiy muammolardan biri xisoblanadi. O'smirlik davrida qizlar reproduktiv tizimni shakllantirishning murakkab jarayonini boshdan kechiradilar, gipotalamus tuzilmalarining yetukligi tugallanadi, gonadotrop gormonlar sekretsiasining barqaror ritmi o'rnatiladi. Balog'atga yetishning fiziologik kursi ko'p jihatdan kelajakda qizlarning homilador bo'lish, tug'ish va emizish qobiliyatini belgilaydi. O'smirlarning reproduktiv tizimining kasalliklari, ularning surunkaliligi generativ funktsiyaning to'liq rivojlanishi uchun prognozni yomonlashtiradi. Qalqonsimon bez tizimi hayz ko'rish funksiyasini tartibga solishga katta hissa qo'shadi, shuning uchun qalqonsimon bez kasalliklari tananing gormonal gomeostazasining o'zgarishiga, shu jumladan reproduktiv tizimning gormonal regulyatsiasining buzilishiga olib keladi.

O'smir qizlarning reproduktiv salohiyatini saqlash ya'ni fertil yoshda tug'ish funksiyasini amalga oshirish imkoniyati dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida eng muhim tibbiy va ijtimoiy muammolardan biri xisoblanadi. O'smirlik davrida qizlar reproduktiv tizimni shakllantirishning murakkab jarayonini boshdan kechiradilar, gipotalamus tuzilmalarining yetukligi tugallanadi, gonadotrop gormonlar sekretsiasining barqaror ritmi o'rnatiladi. Balog'atga yetishning fiziologik kursi ko'p jihatdan kelajakda qizlarning homilador

bo'lish, tug'ish va emizish qobiliyatini belgilaydi. O'smirlarning reproduktiv tizimining kasalliklari, ularning surunkaliligi generativ funktsiyaning to'liq rivojlanishi uchun prognozni yomonlashtiradi. Qalqonsimon bez tizimi hayz ko'rish funksiyasini tartibga solishga katta hissa qo'shadi, shuning uchun qalqonsimon bez kasalliklari tananing gormonal gomeostazasining o'zgarishiga, shu jumladan reproduktiv tizimning gormonal regulyatsiasining buzilishiga olib keladi.



O'zbekistonning aksariyat hududlarida olib borilayotgan profilaktika tadbirlariga qaramay, o'rtacha va yengil yod tanqisligi saqlanib qolmoqda. Eng muhimlaridan biri yod tanqisligi bo'lgan hududlarda yashovchi odamning aql-zakovati muammosi bo'lib, ma'lumki bu hududlarda o'rtacha 10 kishi me'yordan 10-15% past bo'lib kelmoqda.

Shunday qilib, aholi salomatligiga jiddiy tahdid soladigan yoq tanqisligi xolatini har tomonlama o'rganish yod tanqisligi sharoitida qalqonsimon bezning holatini o'rganishga imkon beradi va dunyodagi eng keng tarqalgan yuqumli bo'lmagan patologiyani bartaraf etishga yordam beradi. Qalqonsimon bez patologiyasini rivojlanishida yodning rolini o'rganish, yoq tanqisligi xolatini diagnostika usullarini takomillashtirish yod iste'moli turlicha bo'lgan hududlarda qalqonsimon bez kasalliklarini oldini olish va davolashda tejamkor tibbiy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlaydi.

Ishning maqsadi:

Qalqonsimon bez va reproduktiv tizimlarni har tomonlama o'rganish asosida, qalqonsimon bezning turli patologiyalarida hayz davrining buzilishining xususiyatlarini aniqlash.

Materiallar va usullar:

Akademik Y.X. Turaqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filiali teriodologiya bo'limida qalqonsimon bez kasalliklari bilan og'riqan 92 nafar bemorni to'liq

klirik, laboratoriya va instrumental tekshiruvdan o'tkazdik.

Qalqonsimon bez kasalliklari bilan og'riqan bemorlar 2 guruhga bo'lingan: 1-guruh - normal jismoniy rivojlanishi bilan 56 kishi [60.9%], 2-guruh - 36 [39.1%] jinsiy va jismoniy rivojlanishda kechikishi kuzatilganlar. Luteinlashtiruvchi gormon [LG], follikullarni stimullovchi gormon [FSG], estrogen konsentratsiyasini aniqlash "Beta-" analizatoridan foydalangan holda "Dials" radio immunologik to'plamlari yordamida amalga oshirildi; qalqonsimon bezni stimullovchi gormon [TSG], T4 [tiroksin] darajasi immunoferment taxlillash yo'li bilan baholandi. Akademik Y.X. Turaqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida bemorlarni qalqonsimon bezi va kichik chanoq bo'shlig'i a'zolari ultratovush yordamida tekshiruvdan o'tkazildi.

Xulosa:

1. Qalqonsimon bezning patologiyasi o'smir qizlarning reproduktiv tizimiga ta'sir qiladi: 65,4% hayz davrining buzilishi. Hayz davrining buzilishi tarkibida tuxumdonlar disfunksiyasi (69,8%), ikkilamchi amenoreya (12,3%), birlamchi dismenoreya (11,3%) ko'p uchraydi.

2. Qon zardobidagi qalqonsimon, gonadotrop va steroid gormonlar tarkibidagi eng aniq tebranishlar hayz davrining buzilishi bo'lgan o'smir qizlardagi diffuz notoksik buqoq va subklinik gipoteriozga xosdir.

References:

1. Dedov, I.I, Sexual development of children: norm and pathology II Dedov, TV Semicheva, VA Peterkova - M.: "Color It Studio" 2002 - pp. 12-15.
2. Ushakov, A.V. "Restoration of the thyroid gland" - M. 2008 -S. 45.



3. Toshpulatova N. Togaeva G. Narbaev A. Iodine deficiency disorders and conditions are one of the main issues the world of medicine is facing. Достижения науки и образования. Monthly scientific and methodological journal. №3 (44). 2019.
4. Pozilli Paolo. Fertility and Sterility. - 2008. - November.
5. S.I. Ismailov Clinical guidelines for endocrinology. 2017.
6. Karimova N.A. Davranova A.D. Features of menstrual irregularities in adolescent girls with thyroid pathology. Trends and prospects for the development of science and education in the context of globalization. Pereyaslav-Khmel'nitsky. Ukraine. 27 version 2019. Release 46.537-540.
7. Davranova A.D. Karimova N.A. Features of early diagnosis of congenital hypothyroidism in children. Problems of biology and medicine. International scientific journal. № 1.1 (108) 2019.
8. Karimova N.A. Davranova A.D. Bakhronov S.D. Features of the pathology of the reproductive system in girls in the iododicitis region. P. 112-114. Re-health. Andijon 2020. Issue 4.
9. Dzhuraeva Z.A. Negmatova G.Sh. The state of the cardiovascular system in patients with hypothyroidism. Use of highly innovative technologies in preventive medicine. Republican scientific-practical conference. Andijon 2020.
10. G. S. Togaeva, Clinical And Biochemical Parameters Of Patients With Type 2 Diabetes Who Were Trained At The School Of Self- Control. // JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE SPECIAL ISSUE-2. P-131-136, 2020
11. Togaeva G.S. Oripov F.S. Structural features of cells of islets of Langerhans in offspring with alloxonic diabetes // A new day in medicine. 2/1 (29/1). April June. 2020. p. 218-220.
12. Negmatova G.Sh., Togayeva G.S., Davranova A.D., Azimbegova S.N. Analysis of the thyroid status of pregnant women in the iodine-deficient region. // The American journal of medical sciences and pharmaceutical research, 4(01), 74-78.
13. Negmatova G.Sh., Togayeva G.S., Davranova A.D., Azimbegova S.N. Assessment of the effectiveness of cardioprotective drugs in treatment of children with diabetic cardiomyopathy. // The American journal of medical sciences and pharmaceutical research, 4(01), 79-83.
14. Negmatova G.Sh., Togayeva G.S., Davranova A.D., Azimbegova S.N. Uzbek medical journal. // Criteria for physical and sexual development in with thyroid diseases. 4. 32.